

TILSHUNOSLIKDA DUBLET HODISASI TADQIQI VA MA'NOVIY XUSUSIYATLARI.

Rajabov Nizomiddin Namoz o'g'li

Buxoro Davlat Universiteti

O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikdagi leksik dubletlar, ularning ma'naviy xususiyatlari hamda o'zaro yondosh hodisalar bilan bog'liq muammolari yoritilgan bo'lib, ularning paydo bo'lish o'rni, hodisalarning bir-biri bilan aloqador va farqli jihatlari xususida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Leksik dublet, absolyut sinonimiya, sinonim, variant, manba til (donor til); vositachi til (medium til); qabul qiluvchi til (retseptient til).

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы, связанные с лексическими дублетами в лингвистике, их семантические свойства и связанные с ними явления, а также обсуждается место их возникновения, а также взаимосвязанные и различные аспекты этих явлений.

Ключевые слова: Лексический дублет, абсолютная синонимия, синоним, вариант, язык-источник (язык-донор); язык-посредник (язык-среда); язык-получатель (язык-получатель).

Abstract: This article discusses the problems associated with lexical doublets in linguistics, their semantic properties, and related phenomena, and discusses the place of their occurrence, as well as the interconnected and different aspects of the phenomena.

Keywords: Lexical doublet, absolute synonymy, synonym, variant, source language (donor language); intermediary language (medium language); recipient language (recipient language).

Bir so'z turli shakllarda har xil davrlarda turli tillar orqali kirib kelishi mumkin. Ba'zi so'zlar shakl va ma'no uyg'unligini saqlab qolishi va ba'zilari esa yo'qotishi mumkin. Bunday so'zlar esa tilshunoslikda leksik dubletlar deb ataladi. Leksik dubletlar eng qadimiy va keng qamrovli leksiko-semantik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Leksik dubletlar deb, bir tilda ikki yoki undan ortiq umumiy kelib chiqish tarixiga ega bo'lgan, ayrim paytlarda qayta o'zlashtirish natijasida til lug'at boyligi tarkibiga kirgan, semantik jihatdan bir xil yoki turli davrlarda ma'no jihatdan farqlanishlarga uchragan va talaffuzi bir-biriga yaqin bo'lgan so'z juftliklariga aytiladi. Leksik dubletlarning eng ko'p tarqalgan turi bu etimologik dubletlar hisoblanadi. Shunga o'xshash ta'riflarni ko'plab tadqiqotlarda goh u, goh bu qirralarini

uchratish mumkin. Mavjud manbalarda dubletlar va variantlarga berilgan ta'riflar hamda keltirilgan misollar shu qadar bir – biri bilan chalkashib ketganki, hattoki, bir tilshunos variant sifatida keltirgan misollarni boshqa bir tilshunos dublet sifatida baholagan holatlarni ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, bu ikki hodisaning bir vaqtning o'zida sinonim so'zlar bilan ham bog'liq vaziyatlarda chalkashliklar kuzatilyotganligi bor gap. Shunday ekan mazkur vaziyatda ushbu til birliklarining o'zaro chegaralarini qat'iy belgilab olish ehtiyoji mavjud.

Birinchi navbatda O'zbek tilidagi leksik dubletlar masalasi Sh.Raxmatullayev (2006), A.Hojiyev (1981), R.Qo'ng'urov (1980), E.Begmatov (1985), M.Mirtojiyev (2010), I.Qo'chqortoyev (1977), B.Daniyarov (2020) va boshqalarning asarlarida u yoki bu darajadagi tafsilotlari yoritilgan. O.Yusupov (2020) esa ingliz va o'zbek tillaridagi dubletlarning funksional-semantik va lingvokulturologik tadqiqini olib borgan.¹⁴⁰ Tilshunos olim Azim Hojiyev "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" da dubletlar fransuz tilidagi "Doublet - double" – "ikkilik" so'zidan olingan bo'lib, bir xil teng semantik tarkibga ega bo'lgan til birliklari ekanligini ta'kidlaydi.

Sh.Raxmatullaevning fikricha: "Agar ikki leksema (leksosemema) har jihatdan teng bo'lsa, o'zaro farqlovchi belgiga ega bo'lmasa, leksik dubletlar deyiladi".¹⁴¹ Olim bu hodisani absolyut sinonimiya deb nomlash ham mavjud ekanligini ko'rsatib o'tadi. O'zbek tilining izohli lug'atida dubletlarga quyidagicha izoh berilgan. "Doublet (fr. Doublet < double – qo'shaloq, ikkilangan, ikki hissa) 1. Biror narsaning ikkinchi nusxasi; ikkita bir xil, teng qimmatli narsaning biri. 2. Qimmatbaho, nodir toshlar (buyumlar) ning yasama, soxta nusxasi. 3. Tilda ma'nosiga ko'ra aynan teng keluvchi va biri ikkinchisi o'rniga almashinib qo'llanilishi mumkin bo'lgan so'z va boshqa xil lisoniy birlik. Biroq, ilmiy matnda dubletlarning uch-to'rttasini birdaniga berishni me'yoriy holat deb qarash kerak emas. Tilda sinonim, dublet va variantlarning qavatlanishi yoki takrorlanishi ortiqcha informatsiyani vujudga keltiradi."¹⁴² Tilshunos I. Qo'chqortoyev dubletlar masalasida quyidagicha fikr bildiradi: Sinonimik vositalarning yadro qatlamiga yana dubletlar kiradi. Bu kategoriya o'zbek tilshunosligida adabiy norma nuqtayi nazaridan ma'lum qiziqish uyg'otadi. Ba'zi manbalarda dubletlar xuddi sinonimlar kabi "aytilishi har xil, ma'nosi bir xil so'zlar"¹⁴³ sifatida ta'riflanadi. U. Tursunov va boshqalar hammuallifligida yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida esa quyidagicha fikr bildiradi: Agar leksik birliklar har jihatdan teng kelsa, ular o'zaro farq qilmasa, leksik dubletlar yuzaga keladi. Bu hodisa absolyut sinonim deb ham yuritiladi. Masalan: agitatsiya-tashviqot, propaganda-targ'ibot, tema-mavzu kabilar.

¹⁴⁰ Юсупов Отабек Якубович "Ўзбек тилига араб ва форс тилларидан ўзлашган лексик дублетлар таҳлили" Хорижий филология. No2, 2020.

¹⁴¹ Rahmatullayev Sh. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darslik. Toshkent. "Universitet". 2006.

¹⁴² "O'zbek tilining izohli lug'ati" A. Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent.

¹⁴³ Qo'chqortoyev I. Lug'aviy sinonimik vositalar va ularning asosiy turlari. O'TA, 1984. 40son.

Ko'pchilik tilshunoslar leksik dubletlar juda oz (shunda ham, asosan, terminologiyada) degan fikrdalar. Buning sababi shuki dubletlar biri ikkinchisining aynan nusxasi bo'lgani sababli, bunday leksik dubletlardan biri ortiqcha hisoblanadi, shuning natijasida bulardan biri tilda uzoq yashamaydi deb ta'kidlaydilar. Shuningdek, ular leksik dubletlarni o'tkinchi hodisa sifatida baholaydilar. Yana bir boshqa manbada tilda leksik ma'nolari o'zaro teng bo'lib, farqlovchi semalari bo'lmagan leksemalar ham uchraydi. Masalan: so'roq va savol, xabar va darak, tema va mavzu, nom va ot kabi. Tilshunoslikda bu tipdagi leksemalar absolut sinonimlar yoki leksik dubletlar deb ikki xil nomlanmoqda deyiladi. Tilshunos olim A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da dubletlar bir xil (teng) semantik tarkibga ega bo'lgan til birliklari. Masalan: tilchi – tilshunos, adab – odob, arziydigan – arzirli kabilar misol keltirilgan. Tilshunos olim G'ani Abdurahmommovning umumiy tahriri ostidagi "Hozirgi o'zbek adabiy tili darsligida dubletlar: Aytilishi va yozilishi har xil, ma'nosi bir xil so'zlar dubletlar deb yuritiladi. Dublet so'zlar ma'noda bir-biridan farq qilmaydi, shuning uchun har qanday sharoitda ham ularning biri o'rnida boshqasi qo'llana beradi, biroq bunda adabiy tilda qabul qilingan dubletga ko'proq o'rin beriladi. Dubletlar sinonimlardan farqlanadi. Sinonim so'zlar bir-biridan ma'no o'ttenkalariga ko'ra farqlanib turadi. Lekin dubletlarda bunday xususiyat yo'q. Til leksikasida keltirilgan qonuniyatning aksi - so'zlarning iste'moldan chiqishi, eskirishi ham kuzatiladi. So'zlarning iste'moldan chiqishiga sabab bo'luvchi faktorlar turlichadir. So'zning eskirishi u nom bo'lgan narsa va hodisaning iste'moldan chiqishi, qo'llanishdan qolishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan: o'tmishda o'zbek tilida arbobona, mushrif, yasoq, o'lpon, qo'sh puli singari soliqlar nomi mavjud edi. Hozirda bu tushunchalar va ularning keltirilgan nomlari o'zbek tili uchun eskidir. Til o'z leksik sistemasidagi keraksiz dubletlardan qutulishga ham intiladi, ularning keraksizlaridan voz kechadi. Natijada bunday dubletlardan biri iste'moldan chiqadi. Masalan: partiya (firqa), sovet (sho'ro), respublika (jumhuriyat), avtonomiya (muxtoriyat) kabi. Demak, til leksikasi rivojida ikki qarama-qarshi hodisa yangilanish va eskirish yuz berib turadi. Tilning yangi so'zlarga, yangi ma'nolarga ehtiyoj sezishi, aksincha ba'zi so'zlardan voz kechishi bitta asosiy maqsadga — adabiy tilning o'z kommunikativ funksiyasini yaxshiroq va mukammalroq bajarishga qaratilgan bo'ladi.

Leksik dubletlar paydo bo'lishi jarayonida ishtirokchi tillarning maqomi uch xil bo'ladi: manba til (donor til); vositachi til (medium til); qabul qiluvchi til (retseptient til). Tilshunos Sh. Raxmatullaevning fikricha: "Agar ikki leksema (leksosemema) har jihatdan teng bo'lsa, o'zaro farqlovchi belgiga ega bo'lmasa, leksik dubletlar deyiladi. Olim "bu hodisani absolyut sinonimiya deb nomlash ham mavjud" deb ham ta'kidlaydi. Agar tub so'z bilan o'zlashtirma so'z ma'nolari o'rtasida absolyut sinonimiya mavjud bo'lsa, biz bu kabi holatlarni dubletlar deb ataymiz: O'zbek -fors-tojik: oz –kam; barcha –hamma; toza –pok; yolg'on –soxta;

yilnoma – solnoma. O'zbekcha-arabcha: ayirma – farq, tafovut; bo'lak – qism; kishi – inson, odam; uyushma – ittifoq. Yunoncha – arabcha: analiz – tahlil. Arabcha – tojikcha: maktub – noma. Arabcha – arabcha: rasm – odat. O'zbek tilidagi leksik dubletlar nutqni stilistik jihatdan kategoriyallashtirganimizda yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, so'zlashuv nutqiga oid so'zlar oddiy, erkin muomalada qo'llanadi va ularning ancha qismi emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligi bilan xarakterlanadi. Bu bo'yoqdorlik salbiy va ijobiy munosabat ifodalash bilan bog'liq bo'ladi. So'zlashuv leksikasining stilistik bo'yoqdorligi neytral yoki kitobiy leksikaga oid so'zlar fonida, ya'ni shu leksikaga oid so'zlar ishtirok etgan dubletlar qatorida ko'proq nomoyon bo'ladi.¹⁴⁴ O'zbek tili terminologiyasining hozirgi holatida o'z hamda o'zlashma so'zlarning yonma-yon qo'llanayotganiga shohid bo'lamiz. Ushbu jarayon avvalgi terminologiya tizimidagi me'yor va yangi leksik birlik o'rtasidagi qarama-qarshilik, "yashash uchun kurash"dan guvohlik beradi. Tabiiy, raqobatalashayotgan terminlardan qaysi biri o'zbek tili terminologiyasi tarkibidan munosib o'rin egallashini lisoniy hayot, nutqiy amaliyot va vaqt ko'rsatadi. Ushbu tasniflarda dubletlarning variantdoshlik hodisasi bilan qorishtirilgan tarzdagi ko'rinishlari misollarda va berilgan ta'riflarda yaqqol ko'zga tashlanadi, Shu boisdan ham dubletlarni sinonimlar, ayniqsa, variantlar bilan lingvistik chegarasini belgilab olish lozim.

Ushbu hodisalarga nisbatan noto'g'ri yondashish natijasida ularni istiqboliyo'q, adabiy til normasiga mos kelmaydigan, yaqin kelajakda umumiy bir qolipga tushiriladigan va bir shaklga keltirilishi lozim bo'lgan hodisalardan deb qarash shakllanib bormoqda. Chunki ko'pgina dubletlar mahalliy ahamiyatga ega degan qarash ustuvorlik qilmoqda, aslida, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan va leksik – shakliy munosabat bu tildagi variantdoshlik hodisasidir. Shuningdek, ham sinonimik, ham variantdoshlik hodisasi xususiyatlarini "yelkasiga ortib" olgan dubletlar bugungi kunga kelib tildagi keraksiz, hatto stilistik qiymati ham asta – sekin yo'qolib borayotgan til unsuriga aylanib qolmoqda. O'zbek tilshunosligida dublet hodisasi asosan sinonimiya tarkibida o'rganilib kelingan va bazi manbalarda dubletlar deb nomlansa, ayrim manbalarda absolyut sinonimiya atamasi qo'llanilgan. Bu ikki atama ayni bir hodisani nomlaydi, avvalo, biz bu hodisani absolyut sinonimiya nomi bilan sinonimiya tarkibida o'rganishimiz kerakmi, yoki dublet nomi bilan alohida hodisa sifatida tadqiq etish to'g'riroqmi degan savolga javob topishimiz kerak bo'ladi. Bizga ma'lumki, dublet hodisasi sinonimiya hamda variantdoshlik hodisalari qatorida lug'atshunoslik va terminologiya sohalarining muammoli masalasi sifatida olimlar diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. Shuningdek, dubletlarning paydo bo'lish o'rni va holatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu hodisani absolyut sinonimiya degan fikrdan yiroqla shamiz. Dubletlar masalasi

¹⁴⁴ Rahmatullayev Sh. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darslik. Toshkent. "Universitet". 2006.

tilshunoslikda chuqur tadqiq etishga muhtoj, chunki mavjud manbalarda ular sinonimiya bilan, bazi tadqiqotlarda variantdoshlik hodisasi bilan qorishtirib talqin etilganligi ayni haqiqatdir. Masalan: Tilshunos olim Azim Hojiyev “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” da dubletlar fransuz tilidagi “Doublet - double” – “ikkilik” so‘zidan olingan bo‘lib, bir xil teng semantik tarkibga ega bo‘lgan til birliklari ekanligini ta’kidlaydi: arziydigan – arzirli, adab – odob, tilshunos – tilchi. Shuningdek, ayni shu misollarni tilshunos R. Shukurov “variantdosh so‘zlarning qisqacha lug‘ati”da keltiradi. Bu masalada tilshunos olim Sh. Rahmatullayevning fikrlari e’tiborni tortadi: “Agar ikki leksema (leksosemema) har jihatdan teng bo‘lsa, o‘zaro farqlovchi belgiga ega bo‘lmasa, leksik dubletlar deyiladi”. Olim bu hodisani absolyut sinonimiya deb nomlash ham mavjud ekanligini eslatib o‘tadi. Uning fikricha, tub so‘z bilan o‘zlashtirma so‘z ma’nosida absolyut sinonimiya ya’ni, mutlaq ma’noviy birlik mavjud bo‘lsa, biz bu kabi holatlarni leksik dubletlar deb atashimiz lozimligini aytadi. Ko‘rinib turibdiki, dubletlarda variantlardan farqli ravishda tamoman ma’noviy bir xillik ahamiyatlidir. Variantlarda esa, shakliy yaqinlik ustuvorlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юсупов Отабек Якубович “Ўзбек тилига араб ва форс тилларидан ўзлашган лексик дублетлар таҳлили” Хорижий филология. No2, 2020.
2. Rahmatullayev Sh. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslik. Toshkent. “Universitet”. 2006.
3. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” A. Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent.
4. Qo‘chqortoyev I. Lug‘aviy sinonimik vositalar va ularning asosiy turlari. O‘TA, 1984. 40son.
5. Hojiyev A. “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”. T.O‘qituvchi. 1974.
6. Ҳозирги ўзбек адабий тили Ўзбекистон ССР “ФАН” нашриёти Тошкент-1996. Абдурахмонов Ғ. А умумий таҳрири остида.